



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 10-noyabr, № 239 (8582)

Juma Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TARIXIY SAMMIT:

O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA BO'LGAN UMUMIY INTILISHLAR MAYDONI



IQTISODIY HAMKORLIK
TASHKILOTI 16-SAMMITI
8-9 Noyabr



16th ECONOMIC COOPERATION
ORGANIZATION SUMMIT
8-9 November

9-noyabr kuni Toshkent shahrida "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Alixan Smailov va IHT bosh kotibi Xusrav Noziriy ishtirok etdi.

hamkorlik istiqbollari va uni yangi bosqichga olib chiqish muhokama qilindi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Kun tartibiga muvofiq, IHT doirasida ko'p qirrali

tashkilot a'zolarini mushtarak tarix va muqaddas islom dinimiz, boy madaniyat va o'xshash qadriyatlar chambarchas bog'lab turishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Dunyodagi bugungi ziddiyatlar, savdodagi cheklovlar iqtisodiyotda o'z aksini topmay qolmaydi. Jumladan, bu omillar oziq-ovqat va to'qimachilik eksportiga salbiy ta'sir qildi. Bu vaziyatda eng to'g'ri yo'l — qishloq xo'jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo'shilgan qiymat yaratishga ko'proq investitsiya jalb qilib, eksportni ko'paytirishdir.

Shu bois yig'ilishda qishloq xo'jaligini yangicha yondashuvlar, tashkiliy va moliyaviy vositalar orqali qo'llab-quvvatlash choralari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari har bir tarmoqqa alohida to'xtalib, yangi taklif va tashabbuslarni aytdi.

Tahlillarga ko'ra, bu yil 41 ta paxta-to'qimachilik klasterida hosildorlik 40 sentnerdan oshgan bo'lsa, 9 tasida 30 sentnerdan kam bo'lgan. Hosildorlik pastligi va tannarx yuqoriligi oqibatida Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida rentabellik 10-11 foizdan oshmagan.

ITALIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI SERJO MATTARELLA O'ZBEKISTONGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella 9-noyabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi.

Kun tartibidan O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va

ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatlilik hamkorlikni kengaytirish masalalari o'rin olgan.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil iyun oyidagi Italiyaga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari

yuzasidan fikr almashildi. Sammit yakunida qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolaniishi kutilmoqda.

Shuningdek, Prezident Serjo Mattarella Samarqand va Xiva shaharlariga tashrif buyurib, O'zbekistonning madaniy-tarixiy merosi bilan tanishadi.

O'ZA.

O'zbekiston — Italiya:

MUNOSABATLAR YANGI MAZMUN BILAN BOYIMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Prezidenti Serjo Mattarella 9 — 11-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ladi.

Italiya O'zbekistonning muhim va ishonchli hamkorlaridan biridir. Mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 24-martda o'rnatilgan.

Prezident Shavkat

Mirziyoyevning joriy yil 8-9-iyun kunlari Italiyaga rasmiy tashrifi O'zbekiston — Italiya ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Tashrif doirasida davlatimiz

rahbari Italiya Prezidenti Serjo Mattarella, Bosh vazir Jorja Meloni, ushbu mamlakat ishbilarmun doiralari va hududlari vakillari bilan samarali muzokaralar o'tkazdi.

Tashrif yakunlari bo'yicha ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiya qabul

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'simliklarni himoya qilish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 6-iyunda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 24-avgustda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi o'simliklarni himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. O'simliklarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik

O'simliklarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining o'simliklarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi: biologik himoya vositalari — o'simliklarning va o'simlik mahsulotining zararli organizmlariga qarshi kurashish uchun qo'llaniladigan foydalil organizmlar yoki ularning yashash faoliyati mahsulotlari;

(Davomi 4, 5-betlarda)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING O'N OLTINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Bu borada xalqaro maydonda o'z ovozi va nufuziga ega Tashkilotimizning barcha a'zolari bilan samarali ishlashga tayyormiz. Zero, yaqin va yaxshi qo'shni bo'lgan mamlakatlarimiz iqtisodiyotlari bir-birini to'ldira oladi. Umumiy savdo-transport koridorlari va energetika tarmoqlari esa davlatlarimizni uzviy bog'laydi. Biz yangi "o'sish nuqtalari"ni birgalikda izlab topish orqali kelgusida salmoqli natijalarga albatta erishamiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!
O'zbekiston Tashkilotimizning asosiy hujjati bo'lgan "Istiqbol — 2025" ijrosini sarhisob qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Hozircha ishga solinmayotgan katta imkoniyatlarning chuqur tahlili asosida Tashkilotimizning kelajakdagi ustuvor soha va tarmoqlarini belgilab beruvchi "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035" konseptual hujjatini ishlab chiqish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

Ushbu muhim hujjatda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, o'zaro savdoni rag'batlantirish. O'tgan yili mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi. Bu Tashkilotga a'zo davlatlar umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizi demakdir. Afsuski, imtiyozli savdo bitimini tuzish bo'yicha ko'p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

Bu holatlarni ochiq tan olishimiz va ularni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun vaziyatga yangicha qarash bilan yondashish kerak. Shu munosabat bilan ekspertlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqiraman. Ushbu hujjatda tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o'zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko'paytirish mumkin.

Ikkinchidan, o'zaro transport-kommunikatsiya bog'liqligini kuchaytirish. A'zo davlatlarning aksariyati dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, Osiyo — Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog'laydigan va bizning hududlarimiz orqali o'tadigan transkontinental transport yo'laklari salohiyatidan to'liq foydalanishimiz zarur. Kelgusida Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston va Transafg'on multimodal yo'llarining ishga tushirilishi barcha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladi.

Toshkentda 2-noyabrda bo'lib o'tgan transport vazirlarining yig'ilishida O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a'zolarni ham qo'shilishga, o'zaro tarif va yig'ilmalarni maqbullashtirishga chaqiraman.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuqori tashqi hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan bunday loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaviy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida Tashkilotning Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusini bildiramiz.

Uchinchidan, sanoat kooperatsiyasi hamda ishbiarmonlik aloqalarini faollashtirish, industrial xabarlarni shakllantirish.

Biz o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma harakatlar dasturini ishlab chiqib, Tashkilotimiz Kotibiyatiga taqdim etdik. Mazkur hujjatda kimyo, energetika, geologiya, to'qimachilik, ch'arm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika va qurilish sohalarida yangi qo'shma loyihalarni ilgari surish maqsad qilib qo'yilgan. Bu ezgu yo'lida Tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafdorimiz.

Kecha Toshkentda o'tgan Savdo-sanoat palatalari va ko'plab kompaniyalarimiz rahbarlari ishtirokida beshinchi biznes forumi xususiy sektorda katta salohiyatga ega ekanimizni yaqqol ko'rsatdi. Biz Tashkilotimiz doirasida hududlararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etish va uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o'tkazish taklifini ilgari suramiz.

To'rtinchidan, energetika xavfsizligini kafolati ta'minlash. Milliy energetika strategiyalarini uyg'unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, "yashil" energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshmoqda.

Biz Tashkilotning energetika sohasida hamkorlik strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida keng ko'lami ishlarni amalga oshirmoqdamiz. 2030-yilgacha 25 gigavatt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishni va balansimizda ularning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganimiz. Shu yilning o'zida 2 gigavatt

quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushiryapmiz. Shuningdek, "yashil vodorod" ishlab chiqarish sohasida ham ilk qadamlarni qo'ymoqdamiz. Ushbu yo'nalishlarda barcha davlatlar bilan ochiq muloqot va tajriba almashishga tayyormiz.

Hamkorlik masalalarini batafsil muhokama qilish va ishlarni tizimli asosda olib borish uchun Tashkilotimiz doirasida alohida Energetika vazirlari kengashini ta'sis etishni taklif etamiz.

Beshinchidan, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha aloqalarini jadallashtirish. Hozirgi vaqtda bizning davlatlarimiz bu o'tkir muammolarning og'ir oqibatlariga duch kelmoqda. Muzliklarning erishi, suv resurslari taqchilligi, cho'llanish, chang bo'ronlari, tuproq yemirilishi va biologik xilmaxillikning yo'qolishi kabi jarayonlar qattiq xavotir uyg'otmoqda.

Tuzilmamiz doirasida Ekologiya masalalari bo'yicha yuqori darajali platforma yaratish borasida g'oyamizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur izhor etaman. Uning birinchi anjumanini 2024-yili Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etishga tayyormiz.

Shuningdek, kelgusi haftada yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi bajarilishini ko'rib chiqish bo'yicha qo'mita yig'ilishida vakillaringizni faol ishtirok etishga chorlaymiz. Hozirgi vaqtda tobora jiddiy muammoga aylanib borayotgan qumchang bo'ronlariga qarshi kurashish maqsadida Samarqand deklaratsiyasini qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Oltinchidan, turizm sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Yaqinda 140 dan ortiq davlatlar ishtirokida Samarqandda bo'lib o'tgan Butunjahon

turizm tashkiloti Bosh assambleyasi sessiyasi mintaqamiz sayyohlik salohiyatiga butun dunyo e'tiborini jalb etish borasida tarixiy voqea bo'ldi.

Bugungi kunda Tashkilot makonida UNESCOning 90 ga yaqin Butunjahon merosi obyektlari joylashgan bo'lib, mamlakatlarimizga har yili salkam 80 million xorijiy sayyohlar tashrif buyurmoqda.

Transchegaraviy yo'nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo'shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda "Ipak yo'li" sayyohlik brendi ostida umumiy sayyohlik dasturlarini ko'paytirishni taklif etaman. Tashkilotimiz Kotibiyati huzurida a'zo mamlakatlarning turizm ma'muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat alohida Turizm bo'yicha maslahat qo'mitasini tashkil etish taklifini bildirmoqchiman. Uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Tashkilotimizning turizm poytaxti deb e'lon qilingan Shahrisabz shahrida o'tkazishga tayyormiz.

Shuningdek, a'zo davlatlarni Samarqandda ochilgan Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga chaqiramiz.

Yettinchidan, madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirish orqali do'st xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish. Har yili mamlakatlarimizda navbat bilan Madaniyat, san'at va kino haftaliklarini o'tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo'lga qo'yish, fundamental ilmiy yo'nalishlarda o'zaro hamkorlikni kuchaytirish aloqalarimiz rivojiga kuchli turtki bag'ishlaydi.

Hurmatli sammit qatnashchilari!
Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin — Isroil urushi barchamizda katta tashvish uyg'otmoqda. Ming

afsuski, bu qonli nizo oqibatida, avvalo, tinch aholi vakillari, ayniqsa, ayollar, bolalar va keksalar ko'plab qurbon bo'lmoqda. Urushning mintaq bo'ylab yoyilib ketish xavfi tobora real tus olmoqda.

Qarama-qarshilikning keng ko'lami nizoga aylanib ketishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarni to'xtatishga, tinch muzokaralarni boshlash, oqilona murosaga kelishga chaqiramiz.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan huquqqa, ya'ni o'zining mustaqil davlatini barpo etish huquqiga ega, degan qat'iy pozitsiyamizni yana bir bor bildiramiz.

Shuningdek, bugungi sammit Tashkiloti rezolyutsiyalari biri bo'lgan Afg'oniston ishtirokisiz o'tayotganiga diqqatlingizni qaratmoqchiman.

Asrlar davomida bizga yon qo'shni bo'lgan ko'p millatli Afg'oniston xalqini bugungi murakkab muammolari qarshisida yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Barchangizni afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni ko'paytirishga, ushbu mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas'uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqiraman.

Hurmatli hamkasblar!
Nutqimning yakunida alohida ta'kidlamoqchiman, bugungi tarixiy sammit va uning natijalari Tashkilotimizni samarali va ta'sirchan kutilmaga aylantirishga, ko'p qirrali sherikligimizni yangi marralarga olib chiqishiga ishonaman.
E'tiboringiz uchun rahmat.

TARIXIY SAMMIT:

O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA BO'LGAN UMUMIY INTILISHLAR MAYDONI

Davlatimiz rahbari aytganidek, yarim milliard aholi yashaydigan IHT makoni o'zaro-iqtisodiy, sanoat, investitsiya va innovatsiyalar, transport sohalaridagi aloqalarini rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Keyingi yillarda tashkilot doirasidagi hamkorlik jadal rivojlanayotgani, 2021-yilgi Ashxobod sammitida ilgari surilgan taklif va tashabbuslar izchil amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Jumladan, tashkilot faoliyatini isloh qilish va faoliyati samaradorligini oshirish, xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Yaqinda transport vazirlarining Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi, mintaqaviy elektr energiyasi bozori hamda Boku shahrida Toza energiya markazi tashkil etilmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi, turoperatorlar tarmog'ini yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidenti a'zo davlatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan katta salohiyat mavjudligini ta'kidladi. Masalan, o'tgan yili mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi, bu ularning umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizidir.

Imtiyozli savdo bitimini tuzish bo'yicha ko'p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

IHT doirasidagi hamkorlikka yangi sur'at bag'ishlash maqsadida O'zbekiston Prezidenti "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035" konseptual hujjatini ishlab chiqishni taklif etdi.

Ushbu muhim hujjatda o'zaro savdoni rag'batlantirish, transport-kommunikatsiyaviy bog'liqlikni kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, energetika xavfsizligini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Davlatimiz rahbari tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqirdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o'zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko'paytirish mumkin.

A'zo davlatlarning aksariyati dengizga

to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti transqit'aviy transport yo'laklari salohiyatidan to'liq foydalanish, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li va Transafg'on multimodal yo'li loyihalarini ishga tushirish muhimligini ko'rsatib o'tdi.

Toshkentda 2-noyabrda bo'lib o'tgan transport vazirlarining yig'ilishida O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a'zolarni ham qo'shilishga, o'zaro tarif va yig'ilmalarni maqbullashtirishga chaqirdi.

Yuk tashish to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish va bunday zamonaviy tizimlarni samarali muvofiqlashtirish maqsadida Toshkent shahrida Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusi bildirildi.

O'zbekiston rahbari o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma harakatlar dasturini ishlab chiqish hamda hududlararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etib, uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o'tkazish muhimligini qayd etdi.

O'zbekiston tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafdori ekani ham ta'kidlandi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash doirasida milliy energetika strategiyalarini uyg'unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, "yashil" energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshib borayotgani ko'rsatib o'tildi. Sohada tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida IHT Energetika vazirlari kengashini ta'sis etish taklif qilindi.

Iqlim bilan bog'liq xatarlar ortib borayotgani munosabati bilan O'zbekiston Prezidenti iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini qayd etdi. 2024-yilda bo'lajak Samarqand iqlim forumi doirasida Ekologiya masalalari bo'yicha yuqori darajali platformaning birinchi anjumanini o'tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillarini kelgusi haftada yurtimizda bo'ladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi bajarilishini ko'rib chiqish bo'yicha qo'mita yig'ilishida faol ishtirok etishga chorladi hamda qumchang bo'ronlariga qarshi kurashish maqsadida Samarqand deklaratsiyasini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

salohiyatni va transchegaraviy yo'nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo'shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda "Ipak yo'li" sayyohlik brendi ostida umumiy sayyohlik dasturlarini ko'paytirish taklif etildi.

Prezidentimiz IHT Kotibiyati huzurida a'zo mamlakatlarning turizm ma'muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat Turizm bo'yicha maslahat qo'mitasini tashkil etish hamda uning ilk uchrashuvini tashkilotning turizm poytaxti deb e'lon qilingan Shahrisabz shahrida o'tkazish taklifini bildirdi.

IHT mamlakatlari xalqlarini yanada yaqinlashtirishda madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishning ahamiyatini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti har yili madaniyat, san'at va kino haftaliklarini o'tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo'lga qo'yish, fundamental ilmiy yo'nalishlarda o'zaro hamkorlikni kuchaytirishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida o'tkir xalqaro va mintaqaviy muammolarga, shu jumladan, Yaqin Sharq va Afg'onistondagi vaziyatga ham to'xtalib o'tdi. G'azvo sektoridagi harbiy harakatlarni zudlik bilan to'xtatish, tinchlik muzokaralarini boshlash va oqilona murosaga kelishga chaqirdi. Falastin xalqi BMT rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan o'zining mustaqil davlatini barpo etish huquqi borasidagi qat'iy pozitsiyasini yana bir bor bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni ko'paytirishga, ushbu mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas'uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqirdi. Ta'kidlanganidek, ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Sammitda Ozarbayjon, Eron, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Pokiston, Qozog'iston delegatsiyalari rahbarlari hamda IHT bosh kotibi Xusrav Noziyri ham so'zga chiqdi. Kun tartibiga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti sammit raisi sifatida tashkilotning ilm-fandagi muvaffaqiyatlar uchun mukofoti g'oliblarini e'lon qildi. Har bir mamlakatdan bir nafar vakil mukofotga sazovor bo'ldi.

Tadbir yakunida Toshkent kommunikasi qabul qilindi.

Tashkilotga raislik Eronga o'tdi, navbatdagi sammit Ozarbayjonda o'tkazilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti tadbirlari doirasida Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy,

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Alixan Smailov bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy oliy uchrashuvda O'zbekiston — Eron munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va transport sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'zaro muloqotlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ikki tomonlama savdoda o'sish sur'ati saqlanib qolmoqda, iqtisodiyotning tirlar tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari birgalikda amalga oshirilmoqda.

Ilgari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni to'liq ro'yobga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish, qishloq xo'jaligi, logistikada o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Eron rahbarlari madaniy-gumanitar va ilm-fan sohasidagi almashinuvlarni rivojlantirish muhimligini ko'rsatib o'tdilar.

Shuningdek, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, Afg'onistondagi bugungi vaziyat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi yaxshi o'zshnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

O'zaro savdoni ko'paytirish, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha, shu jumladan, Hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida muvofiqlashtirish ishlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Hududlar o'rtasidagi ishbiarmonlik aloqalari va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari bo'lajak tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov suhbat avvalida O'zbekiston yetakchisiga Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb

masalalari hamda oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi batafsil ko'rib chiqildi.

Tomonlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va chuqurlashtirish strategik sheriklik izchil rivojlanib, mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Savdo, sanoat, energetika, suv xo'jaligi, transport va boshqa ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlik kengaymoqda.

Hududlararo va madaniy-gumanitar aloqalar faol. Joriy yil oktyabr oyida Turkmaniston va O'zbekiston madaniyat kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Ikki mamlakat Prezidentlari mintaqaviy kun tartibi va ko'p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik masalalarini ko'rib chiqdilar.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuvda O'zbekiston — Ozarbayjon do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Muntazam o'tkazib kelinayotgan oliy darajadagi muloqotlarda erishilgan kelishuvlarning natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'smoqda, avtomobil, elektrotexnika, to'qimachilik sanoatida, energetika tarmog'ida, qishloq xo'jaligi, logistika va boshqa ustuvor yo'nalishlarda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari amaliy hamkorlik dastur va loyihalarini ilgari surish borasida birgalikdagi ishlarni jadal davom ettirish muhimligini ta'kidladilar.

Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Alixan Smailov uchrashuv avvalida O'zbekiston yetakchisiga Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Oliy darajada erishilgan, shu jumladan, tovar ayirboshlashni oshirish, sanoat kooperatsiyasi va logistika loyihalarini ilgari surish borasidagi kelishuvlarning to'liq amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Bu borada qo'shma Hukumatlararo komissiyaning samarali ishini davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

O'ZA.

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI MUHOKAMA QILINDI

Sharoit va izlanish bo'lsa, yaxshi tajribalar ham bor. Masalan, Navoiy viloyatidagi "Navbahor" klasteri xorijdan olib kelgan yangi paxta navi o'rta 70 sentnerdan ortiq hosil beryapti. Uning tannaxri, deylik, Jizzaxdagi nisbatan qariyb ikki barobar arzoniga aylanyapti.

Shu bois paxta urug'chiligi bo'yicha yangicha yondashuvlar ko'rsatib o'tildi. Unga binoan, kelgusi yili har bir viloyatdagi ball boniteti past, sug'orish qiyin bo'lgan va hosildorligi 30 sentnerdan oshmaydigan 1 tadan tuman 70 — 80 sentnerdan yuqori hosil beradigan paxta urug'ini chetdan olib kelishga ruxsat etiladi. Shuningdek, 30 sentnerdan past hosil berayotgan navlarni ekish o'xtalib, urug'chilik institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi serhosil navlar bilan almashiriladi.

Bu sohadaq yana bir dolzarb masala — ayrim klaster va fermerlar o'rtasida hisob-kitob intizimi buzilgan. 122 ta klasterning Qishloq xo'jaligi jamg'armasi va fermerlar oldida qarzdorligi bor. 6 ta klasterning ishlab chiqarish quvvati yo'q bo'lsa-da, ularga imtiyozli kredit berilgan.

Shundan kelib chiqib, klasterlarni tashkil etish, ular bilan fermerlar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi.

Endi yangi klasterlarga moliyaviy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlari va texnika ta'minoti bo'yicha talablar qo'yiladi va ochiq tanlov orqali tanlanadi. Ularda kamida ikki bosqichli qayta ishlash bo'lishi shart.

Fermerlar bir viloyat ichidagi xohlagan klasteri bilan fuchers shartnomasi tuzishi mumkin bo'ladi. Ular fuchers shartnomasidan ortgan hosilni birja orqali sotishiga ham imkoniyat yaratiladi.

Shuningdek, kelgusi yil hosili uchun paxta yetishtirishga 60 foiz avans ko'rishidagi imtiyozli kreditlar to'g'ridan-to'g'ri fermerlarga ajratiladi.

Klasterlar esa yetishtirilgan paxtani sotib olish va terim uchun mablag' berish orqali moliyalashtiriladi. Chuqur qayta ishlashga ham alohida mablag'lar ajratiladi.

Mutasaddirlarga klaster va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini yo'lga qo'yish, ular o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni hal etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Klasterlarni xalqaro moliya standartlariga o'tkazish zarurligi qayd etildi.

Bu yilgi paxta hosilini to'liq qayta ishlash natijasida 2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 9,6 milliard dollarga, eksportni esa 4,5 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan.

Xususan, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida gazlama ishlab chiqarish va bo'yoqxonalar tashkil qilish bo'yicha 350 million dollarlik, Qoraqalpog'istonda sun'iy tola, gazlama-mato va bo'yashga ixtisoslashtirilgan 60 million dollarlik loyihalar boshlangan. Bu korxonalar kelgusi yil ishga tushirilib, tadbirkorlarga sanoat ipotekasi asosida beriladi. Ularda 1,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Mazkur tarmoq rivojini qo'llab-quvvatlash

maqasidida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, gazlama-mato, bo'yash va tikuvchilik bo'yicha yangi qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Jumladan:

— bo'yalgan matoning 50 foizdan kam bo'lmagan qismini ichki bozorga sotgan korxonalar ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'laydi;

— ularga mol-mulk solig'ini 3 yil davomida bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi;

— 2025-yil 1-yanvarga qadar paxta va sun'iy tola import qilishda transport xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi;

— to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalar uchun zarur texnologik uskunalar va ularning ehtiyot qismlarini import qilishda ular bo'xona bo'jidan ozod qilinadi.

Prezidentimiz bunday imkoniyatlardan foydalanib, loyihalarni ko'paytirish, infratuzilma xarajatlarining yarmini qoplab berish muhimligini ta'kidlaydi.

Bog'dorchilikda 16 ming gektar bog' va 10 ming gektar tokzorning hosildorligi pastligi qayd etildi. Bu ularda gektardan kamida 3 — 5 ming dollardan, yiliga o'rta 100 million dollar daromad yo'qotilyapti, degani.

Shu bois endi har bir tumanida hokim boshchiligida qishloq xo'jaligi, soliq va statistika xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzilib, bog' va tokzorlar yiliga kamida bir marta tuzilgan o'tkaziladi. Ular samarasiz deb topilsa, yer solig'idan berilgan imtiyoz bekor qilinadi va soliq to'liq undirib olinadi. Kelgusi yildan boshlab, bog' va tokzorlarga hosildorligi va tushumiga qarab,

tabaqalashgan yer soligi stavkalari joriy qilinadi.

Shuningdek, bog'lardagi qator oralarida va tomorqalarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish vazifalariga ham o'xtalib o'tildi.

Bugungi kunda parrandachilikda yiliga 690 ming tona go'sht va 8,7 milliard dona tuxum yetishtiriladi. So'nggi oylarda bu mahsulotlar narxi sezilarli oshdi. Ozuqa muammosi mahsulot tannaxrini pasaytirish imkonini bermayapti. Shuning uchun 8 ta yirik don ombori tashkil etilishi aytiladi.

Yana bir muhim masala — bizda birinchi tartibli parranda naslining ota-onalik liniyasi yo'q, shu sababli yiliga 3 million bosh jo'ja import qilinmoqda. Bu nasl o'zimizda bo'lsa, ishlab chiqarish 3 barobar oshirish, go'sht tannaxrini 10 foizga kamaytirish mumkin. Eng muhimi, yiliga 50 million dollarlik inkubatsion tuxum va nasli jo'jalarni eksport qilish imkoni paydo bo'ladi. Shu borada AQSH kompaniyalari bilan kelishuvga erishish vazifasi qo'yildi.

25 ta tuman chora klasterlari tashkil etish, sut yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, baliq yetishtirishni ko'paytirish, Cloveniya tajribasi asosida hovuzlar barpo etish masalalari ham aytib o'tildi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish masalasi ham tahlil qilindi. Xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilingan mablag'lar to'liq yo'natirilmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Negaki, bu mablag'lar 20 — 25 yilga jalb qilingan bo'lsa-da, banklar tomonidan tadbirkorlarga 5 — 7 yilga ajratilmoqda. Kredit berish uchun loyihalarni ko'rib chiqish muddati bir yilgacha cho'zilmoqda. Mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari cheklangani sababli tadbirkorlarda qiziqish kam.

Shu bois bu resurslarni banklar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham jozibador shartlarda ajratish kerakligi ta'kidlandi. Qishloq xo'jaligi loyihalariga beriladigan kreditlar muddati 3 yillik imtiyozli davr bilan 15 yilgacha uzaytirilishi, ular 2 oygacha muddatda ko'rib chiqilishi belgilandi.

Qishloq xo'jaligi vazirligiga xalqaro moliya tashkilotlari, budget va banklar ajratayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi bo'yicha ichki audit xizmatini tashkil qilish topshirildi.

Yirik savdo tarmoqlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga teng sharoit yaratilmagani, va raqobat va narx-navogga ta'sir etayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda budgetga tushumlarni ta'minlash masalasiga ham e'tibor qaratildi. Bu borada ayrim tuman va shaharlarda oqsolqikka yo'l qo'yilayotgani, daromadlar hajmi ishlab chiqarish, eksport va investitsiyalarga mos emasligi ko'rsatib o'tildi.

Kuz-qish mavsumiga jiddiy tayyorgarlik ko'rilgani ta'kidlanib, hududlarga tabiiy gaz yetkazib berish va hisobini yuritish bo'yicha mutasaddirlarga topshiriqlar berildi.

O'ZA.

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI TUFAYLI IHT YUKSALISH UCHUN YANGI KUCH OLMOQDA

Xorijiy ekspertlar Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti yakunlari haqida.

8-9-noyabr kunlari Toshkentda "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) sammiti bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raislik qildi. Unda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

Sammit doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston, Turkiya, Eron, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon Prezidentlari, shuningdek, Pokiston va Qozog'iston Bosh vazirlari hamda IHT bosh kotibi Xusrav Noziyri bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Sammit arafasida Toshkentda tashkilotga a'zo davlatlar ishbilarmon doiralari va hukumat vakillari ishtirokida biznes forumi bo'lib o'tdi.

Toshkentda ilk bor uyushtirilgan ushbu tadbir xalqaro maydonda katta aks sado berish barobarida, sammit yakunlari xalqaro ekspert doira vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo'layotir.

Aksariyat ekspertlar O'zbekiston tashkilot faoliyatiga o'zining zamonaviy rivojlanishiga xos bo'lgan dinamik va konstruktivlik olib kirgani hamda IHT makonida o'zaro savdoni yaxshilash, transport aloqalarini kengaytirish, energiya va ekologik xavfsizlikni ta'minlash katalizatoriga aylanib borayotganini ta'kidlamoqda.

etgan mamlakatning o'rni ortib borayotganidan yaqqol dalolat.

500 million kishiilik bozorga ega Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Turkiya va Markaziy Osiyoning beshta mamlakati davlat va hukumat rahbarlarining mazkur forumdagi ishtiroki IHT doirasida ilgari surilgan va muhokama qilingan tashabbuslarga xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Bu, ayniqsa, O'zbekiston tashabbuslariga taalluqli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning YUNIDO va SPEKA bilan birgalikda IHT doirasida Savdo, investitsiya va innovatsiyalar markazini tashkil qilish va uning bosh ofisini Toshkent shahrida joylashtirish haqidagi taklifi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tarixida yangi sahifa ochmoqda. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining dinamik xususiyatini aks ettiruvchi ushbu taklif Markaziy Osiyoni global sarmoya va texnologik almashinuv maydoniga aylantirishi mumkin.

Tovar ayirboshlash hajmi 12,3 milliard dollardan oshgan O'zbekiston o'zini IHTdagi asosiy iqtisodiy hamkor sifatida ko'rsatmoqda va bu mamlakatning mintaqada savdo hamda sarmoyaviy aloqalarini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlamoqda. Iqtisodiy sheriklikdagi muvaffaqiyat butun mintaqaga uchun innovatsiyalar va rivojlanishning drayveri bo'lib xizmat qiluvchi 4400 ga yaqin qo'shma korxonalarining tashkil etilishi bilan birga keladi.

O'zbekiston turli xalqaro tashkilotlardan IHT huzuridagi kuzatuvchilarni olqishlab, ko'p tomonlama muloqotga sodiqligini va xalqaro tamoyillarga hurmatini namoyish qildi. Bu dunyo tobora o'zaro bog'liqlikka tayyan borayotgani va har bir ovoz tinglashga loyiq ekanini chuqur anglashdan dalolat beradi.

IHTning "Istiqbollar — 2025" dasturi O'zbekiston va uning hamkorlari oldiga savdo, transport, energetika va atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan ulkan maqsadlarni qo'ydi. Bu O'zbekiston o'zgarishlar katalizatori rolini o'ynaydigan mintaqaga uchun barqaror va farovon kelajak yaratishga qaratilgan strategik yondashuvdir.

Tabiiy resurslar va madaniy merosga boy o'zbek zaminini o'zining mehmondo'stlik va madaniy almashinuv markazi sifatidagi rolini yana bir bor tasdiqladi.

Toshkentda bo'lib o'tgan IHT sammiti nafaqat "aqillar" uchrashuvi va fikr almashish, balki o'zbeklarning ochiqligi va an'analari bayrami bo'lib, diplomatiya va do'stona munosabatlarni iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalar bilan yonma-yon turishini namoyish etdi.

Son CHJUANCHI, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori:

— IHTning Toshkent sammiti mazkur tashkilot tarixiga uning faoliyat rivojiga kelgusi yillar uchun kuchli turтки bergan yangi muhim voqea sifatida kiradi.

O'zbekistonning IHTga raisligining asosiy leymotivi Markaziy Osiyoning

qo'shni va uzoq mintaqalar bilan o'zaro bog'liqlikni faol mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqaro yuk va yo'lovchi tashuvlarini yengillashtirish, bu orqali tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning faol sa'y-harakatlarining samarali ta'siri yirik "SHTT oilasi"ning bir qismi bo'lgan IHTga a'zo davlatlar geografiasidan ham chetga chiqadi. Yevropa va Osiyo — Tinch okeani mintaqasidagi ko'plab davlatlar transport va iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishdan manfaatdor.

Xususan, O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ilgari surilayotgan ustuvor yo'nalishlar bilan hamohangdir.

Mehmet Seyfettin EROL, Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi "ANKASAM" direktori (Turkiya):

— Yevrosiyoning nu fu z li mamlakatlaridan biri — yangi O'zbekiston yana bir muhim xalqaro tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazdi. Avvalo, mintaqaviy hamkorlik bo'yicha yirik tashkilot — IHT sammitiga O'zbekiston ilk bor mezbonlik qilayotganini ta'kidlash lozim.

O'zbekistonning tashkilotdagi faoliyati mamlakatning ko'p qirrali tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'zaro muvaffaqiyat, konstruktiv diplomatiya, tinchlik va farovonlik tamoyillariga asoslangan.

Xalqaro muhitda inqiroz va muammolar kuchayib borayotgan bir paytda mazkur sammit "global tinchlik", "global taraqqiyot va farovonlik", "global barqarorlik va xavfsizlik" maqsadlari doirasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Markaziy Osiyoning yuragi bo'lgan O'zbekiston mintaqaviylik katta ahamiyat kasb etgan yangi xalqaro muhitda yana bir hamkorlik, do'stlik va sivilizatsiyalarning muhim chorrahasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yana bir e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan muhim jihat shundaki, ushbu tadbir uchun chiqinchi Renessans davriga poydevor yaratayotgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yuksak saviyada o'tkazildi.

Sammit kun tartibidagi masalalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning naqadar dolzarb ekaniga amin bo'lamiz. Bunga a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, savdo va madaniy hamkorlikni yaxshilash, mintaqaviy savdo, transport infratuzilmasini rivojlantirish va boshqalar kiradi. Sammitda Falastin — Isroil muammosi va Falastinga gumanitar yordam ko'rsatish kabi mavzular ham muhokama qilindi. Bu signallar inson qadr-qimmatiga qaratilgan yuksak sivilizatsiyaning kuchli markazlaridan biri bo'lgan O'zbekistondan kelayotgani juda muhim.

"Dunyo" AA.

O'zbekiston — Italiya: MUNOSABATLAR YANGI MAZMUN BILAN BOYIMOQDA

O'zbekiston va Italiya BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda.

Italiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda sheriklik, yaxshi qo'shniçilik va ishonch muhitini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, Italiya — Markaziy Osiyo hamkorlik formatini yanada rivojlantirish tarafdori.

Bugungi kunga qadar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun barcha zarur institutsional mexanizmlar yaratilgan va ular muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilib, ularda ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilinayotir.

Shuningdek, Savdo-iqtisodiy, sanoat hamkorlik va eksport kreditlari bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhi samarali faoliyat ko'rsatyapti.

Ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham izchil rivoj topmoqda. 2011-yildan buyon Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida parlamentlararo guruhlar faoliyat yuritaypti.

Shuningdek, Italiya parlamentida "Italiya — Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi tuzilgan.

Bundan tashqari, mamlakatlarimiz o'rtasidagi idoralararo va hududlararo hamkorlik yangi sur'at kasb etayotir.

O'zbekiston va Italiyaning o'zaro munosabatlarni chuqurlashtirishdan manfaatdorigi savdo-iqtisodiy aloqalar va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishning bugungi dinamikasini belgilab beradi.

Italiyalik investorlarning O'zbekistonga qiziqishini davlatimiz rahbarining iyun oyidagi tashriifi arafasida ikki mamlakat ishbilarmon doiralrining 300 ga yaqin vakillari ishtirokida o'tkazilgan qo'shma biznes forumi yakunlari, shuningdek, Milana Prezident Shavkat Mirziyoyev va ushbu mamlakatning yirik kompaniyalari rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan davra suhbatlari ham tasdiqlaydi.

Biznes forumi yakunlari bo'yicha energetika, gaz-kimy va neft-gaz sanoati, metallurgiya, kimyo, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik loyihalari amalga oshirishni nazarda tutuvchi umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ortiq bo'lgan investitsiya va savdo bitimlari imzolandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Italiya kapitali ishtirokidagi 52 ta korxonaga faoliyat ko'rsatadi. Ulardan 33 tasi qo'shma va 19 tasi esa to'liq Italiya sarmoyalari asosida tashkil etilgan. Italiyaning oltita kompaniyasi ofislari, shuningdek, Italiya — O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzurida akkreditatsiyadan o'tgan. Ularining asosiy faoliyat yo'nalishlari za'faron, alkogolsiz ichimliklar, vino, shisha aksessuarlari, atir-upa,

muzaqaymoq, trikotaj, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, savdo-sotiq va vositachilik xizmatlaridan iborat.

Eng qulay davlat rejimi O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi savdo qo'llaniladi. Joriy yilning 9 oyida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 390 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Ikki davlat tadbirkorlarining hududlararo hamkorligi kengaymoqda, xususan, Toshkent viloyati va Italiyaning Lombardiya mintaqasi o'rtasida kommunal infratuzilma, kimyo, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqildi.

"O'zbekiston Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'priq, sheriklik nuqtayi nazaridan strategik davlat, ulkan salohiyatga ega. Biz O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishida ishtirok etishni istamay va ko'p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga tayyormiz. Tadbirkorlar ilg'or texnologiyalar va yuqori sifatli yakuniy mahsulotlar taklif etuvchi hamkorlikka tayyor. Biz ikki tomonlama sheriklik salohiyatini to'liq yo'yoqga chiqarish uchun ko'mak beramiz", dedi Italiya tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri o'rinbosari Edmondo Chiriyelli joriy yilning iyun oyida bo'lib o'tgan biznes forumidagi nutqida.

O'z navbatida, bugungi kunda O'zbekiston italiyalik biznesini keng qo'llab-quvvatlash va chora-tadbirlari va ularning mamlakatimizdagi faoliyati uchun samarali platforma yaratishga tayyor.

Ikki mamlakat xalqari o'rtasidagi chuqur tarixiy ildizlarga borib taqaladigan madaniy-gumanitar aloqalar, iliq, do'stona munosabatlari O'zbekiston — Italiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk Ipak yo'li davrida Rim va Movarounnahr o'rtasida madaniy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, faol savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Xususan, yurtimizda amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar davomida ildizlari Rimga borib taqaladigan artefaktlar aniqlandi.

Masalan, eski Termiz shahri xarobalari ostidan Trayan va Mark Avreliy imperatorlari davriga olib yuzlab kumush tangalar, nafis marmardan ishlangan haykaldalar qoldiqlari va Rim xudolari tasvirlari tushirilgan noyob ashyolar topildi. O'rta Yer dengizi va Markaziy Osiyo mintaqalari o'rtasida savdo aloqalaridan tashqari diplomatik munosabatlarni ham rivojlantirishga muvaffaqiyatli davom ettirish hamda ikki davlat hamkorligini rivojlantirishda yangi uyg'onish davrining boshlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilaypti. Shu nuqtayi nazardan, Italiya Prezidenti Serjo Mattarellaning O'zbekistonga tashriifi bu jarayonga yana bir kuchli turtki bo'lib, tomonlar o'rtasidagi mustahkam do'stlik va strategik sheriklikni har jihatdan kengaytirish hamda chuqurlashtirishga intilishning yaqqol tasdiqi bo'ladi.

"Dunyo" AA.

E'tirof

Jan-Antuan DYUPRA, Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti, O'zbekiston bo'yicha mutaxassis (Fransiya):



IHT Yevropa Ittifoqi misolida savdoni rag'batlantirish, yagona tovar va xizmatlar bozori vujudga keltirish maqsadida a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga intiladi. Ushbu ulkan hududiy tuzilimda O'zbekistonning rolini oshirish Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi iqtisodiy strategiyasiga to'liq mos keladi. IHT davlatlari respublikaning asosiy savdo hamkorlariga aylandi. 2022-yilda O'zbekiston va IHT mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12,3 milliard dollarga yetdi, 2023-yilning yanvar — iyul oylarida esa 5,8 milliard dollardan oshdi.

O'zbekistonning IHTga raisligi boshlangan 2022-yildan buyon ko'plab sohalarda 25 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi. Masalan, 2022-yil iyul oyida Toshkentda IHTga a'zo davlatlar qishloq xo'jaligi vazirlarining 7-yig'ilishi, 2022-yil dekabrda turizm vazirlarining o'rta yig'ilishi, 2023-yil yanvarda esa IHTga a'zo barcha davlatlar TV rahbarlari ishtirokida Tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Shu nuqtayi nazardan, Toshkentda ilk bor bo'lib o'tgan IHT 16-sammiti tashkilot taraqqiyotining yangi bosqichi va ulkan istiqbollarini ko'rsatadi.

IHT Markaziy va Janubiy Osiyo, shuningdek, Yaqin Sharq o'rtasida savdo va sarmoyaviy imkoniyatlarni rivojlantirish hamda rag'batlantirishga yordam beruvchi tashkilotga aylanoqda.

O'zbekiston IHT doirasida avtomobil va temir yo'l transporti infratuzilmasiga, mintaqalararo tranzit uzellarini yaratishga, transport va tranzit tariflarini optimallashtirishga, xususan, raqamlashtirishni joriy etishga, unga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga, Afg'onistonga ko'makni kuchaytirish va bu davlat bilan birgalikda turli sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirishga sarmoya kiritish tarafdori.


Muhammad AMIN, Singapurning "STI" kompaniyasi vitse-prezidenti:

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tgan sammiti O'zbekistonning xalqaro maydon va mintaqaviy integratsiyadagi roli ortib borayotganini namoyon etuvchi muhim voqea bo'ldi. U mamlakatning mintaqaviy jarayonlarda faol qatnashish, iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya, sarmoyaviy va gumanitar almashinuv sohalarida umumiy manfaatlarni amalga oshirishga hissa qo'shish istagini ifodalaydi.

Sammit dolzarb mintaqaviy muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish masalalarini muhokama qilish imkonini berdi, bu, shubhasiz, IHT davlatlarining o'zaro hamkorligini boyitadi va uning samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, sammitning muvaffaqiyatli o'tkazilishi O'zbekistonning keng xalqaro hamkorlikka ochiq davlat va muhim mintaqaviy tashabbuslar uchun platforma sifatidagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash lozim. Bu xalqaro investorlar va sheriklar uchun O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va ochiqligi, shuningdek, uning Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlashdagi roli oshib borayotganidan darak beradi.

Vita KOBIELA, Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo munosabatlari bo'yicha mustaqil tahlilchi, "COTANCE" agentligining loyihalar va kommunikatsiyalar bo'yicha menejeri (Belgiya):



Toshkent Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitiga mezbonlik qilish barobarida, yana bir bor mintaqaviy birdamlik markaziga aylandi. Mazkur voqea va uning natijalari O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi, o'zida chuqur tarixiy meros va innovatsiyalarga intilishni mujassam

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida

◀ (Davomi. Boshlanishi 1-betda).

zararli organizmlar – o‘simliklarning, hayvonlarning yoxud kasallik qo‘zg‘atuvchi agentlarning o‘simliklarga yoki o‘simlik mahsulotlariga zarar yetkazuvchi har qanday turi, xili yoki biotipi;

kimyolashtirish vositalari – o‘simliklarning rivojlanishini, pishib yetilishini tezlashtirish, hosildorligini va sifatini oshirish, shuningdek tuproq unumdorligini yaxshilash uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalar;

mineral o‘g‘itlar – tayyorlangan yoki qazib olingan, tarkibida mineral shaklidagi oziqlantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan o‘g‘itlar;

pestitsidlar – zararli organizmlarga qarshi kurashish uchun qo‘llaniladigan moddalar;

fitosanitariya tadbirlari – zararli organizmlar tomonidan yetkaziladigan iqtisodiy zarar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

o‘simliklarni himoya qilish – zararli organizmlarga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlar majmui;

o‘simliklarni himoya qilish vositalari – o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalar va biologik himoya vositalari.

4-modda. O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi asosiy prinsiplar
<p>O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:</p> <p>qonuniylik;</p> <p>inson sog‘lig‘i va atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi;</p> <p>tizimlilik va uzluksizlik;</p> <p>biologik usulni qo‘llash ustuvorligi;</p> <p>ochiqlik va shaffoflik.</p>
2-bob. O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat boshqaruvi
<p>5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari</p>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: o‘simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini tashkil etadi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish uchun sinovlarni o‘tkazish, ularni ro‘yxatga olish hamda ishlab chiqarish, mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash tartibini tasdiqlaydi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlaydi;

biologik himoya vositalarini olib kirish va olib chiqish tartibini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida uchraydigan karantin ahamiyatiga ega bo‘lmagan zararli organizmlar ro‘yxatini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari
<p>O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi: o‘simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini, yangi texnikani va texnologik jarayonlarni hamda qishloq xo‘jaligida ularning qo‘llanilish usullarini yaratishga, sinashga va joriy etishga doir ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik hamda loyihalashtirish ishlarini amalga oshiradi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish sohasida mutaxassislar tayyorlanishini, qayta tayyorlanishini va ularning malakasi oshirilishini ta‘minlaydi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llashga doir uslubiy ko‘rsatmalarni, tavsiyanomalarni ishlab chiqish hamda joriy etishda ishtirok etadi;</p> <p>qishloq xo‘jaligining kimyoviy va biologik himoya vositalariga, favqulodda vaziyatlar holatida kimyoviy vositalarning zaxiralarini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlaydi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.</p>

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari
<p>O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi). Maxsus vakolatli davlat organi:</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;</p> <p>zararli organizmlarga qarshi kurashishning integratsiyalashgan tizimini ishlab chiqadi va joriy etadi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi hududiga boshqa mamlakatlardan zararli organizmlar kirib kelishi xavfining oldini olish va ularga qarshi kurashish choralarini ko‘radi;</p> <p>kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari bo‘yicha texnik reglamentlarni ishlab chiqadi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish uchun sinovlar o‘tkazish, ro‘yxatga olish, ilmiy tadqiqotlar uchun olib kirishga ruxsat beradi;</p>

biologik himoya vositalarini olib kirish va olib chiqish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olishni amalga oshiradi hamda kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olganlik to‘g‘risida guvohnoma beradi;

mineral o‘g‘itlarning va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya beradi;

mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirishga doir ruxsatnoma beradi;

O‘simliklar zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashishning qo‘llash uchun ruxsat etilgan kimyoviy hamda biologik vositalari, defoliantlar va o‘simliklar o‘sishini boshqaruvchi vositalar ro‘yxatini yuritadi hamda e‘lon qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan birgalikda o‘simliklarni himoya qilish vositalarining qo‘llanilishi taqiqlangan yoki cheklangan faol va nofaol ingrediyentlarini aniqlaydi, O‘simliklarni himoya qilish vositalarining qo‘llanilishi taqiqlangan yoki cheklangan faol va nofaol ingrediyentlari reystrini yuritadi hamda nazorat qiladi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish hamda qo‘llash, texnik reglamentlarga rioya etish, o‘simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog‘lig‘iga va atrof-muhitga ta‘sirini aniqlash bilan bog‘liq faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kimyolashtirish vositalarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining sifatini nazorat qiladi, ulardan foydalanish to‘g‘risida xulosalar beradi, inson sog‘lig‘iga va atrof-muhitga zararli ta‘siri aniqlangan taqdirda ularning qo‘llanilishini taqiqlaydi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasida kadrlar tayyorlanishini, qayta tayyorlanishini va ularning malakasi oshirilishini tashkil etadi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llashga doir uslubiy ko‘rsatmalarni, tavsiyanomalarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida uchraydigan karantin ahamiyatiga ega bo‘lmagan zararli organizmlar ro‘yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

o‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini hisobga olish, olib kirish, saqlash, realizatsiya qilish, qo‘llash, zararsizlantirish, ko‘mib tashlash va yo‘q qilishning avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etadi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari
<p>O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi:</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish, saqlash, realizatsiya qilish, qo‘llash, tashish, muomaladan chiqarish, zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, ko‘mib tashlash hamda yo‘q qilish chog‘ida normalar, qoidalar va normativlarga rioya etilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi;</p> <p>toksikologik-gigiyenik jihatdan baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi va o‘tkazadi, pestitsidlarning oziq-ovqat mahsulotlaridagi, ishlab chiqarish obyektlaridagi va atrof-muhit obyektlaridagi gigiyenik normativlari hamda reglamentlarini ishlab chiqadi;</p> <p>pestitsidlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi va boshqa o‘simlik mahsulotidagi qoldiq miqdorini davlat toksikologik ekspertizasidan o‘tkazadi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish vositalarining davlat sanitariya-gigiyena ekspertizasini o‘tkazadi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish vositalari bilan ishlaydigan shaxslarning dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklari o‘tkazilishini, shuningdek pestitsidlardan zaharlangan bemorlarga tashxis qo‘yilishini tashkil etadi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.</p>

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari
<p>O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi:</p> <p>ro‘yxatga olish uchun taqdim etiladigan o‘simliklarni himoya qilish vositalarining atrof-muhitga ta‘sirini baholashni amalga oshiradi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazadi;</p> <p>yaroqsiz holga kelgan kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini ko‘mib tashlash jarayonida ishtirok etadi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qo‘llash, zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, ko‘mib tashlash va yo‘q qilish chog‘ida atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazadi;</p> <p>yaroqsiz holga kelgan kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini ko‘mib tashlash jarayonida ishtirok etadi;</p> <p>kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qo‘llash, zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, ko‘mib tashlash va yo‘q qilish chog‘ida atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasida zaharli kimyoviy moddalar va boshqa toksik moddalar saqlanayotgan yoki ko‘mib tashlangan maxsus obyektlar faoliyatini tartibga soladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.</p>

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi vakolatlari
<p>Mahalliy davlat hokimiyati organlari:</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, maxsus vakolatli davlat organi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, yaroqsiz holga kelgan va (yoki) qo‘llanilishi taqiqlangan kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini zararsizlantirish ishlarini tashkil etadi;</p> <p>respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari hududiy bo‘linmalarining zararli organizmlarga qarshi kurashishga qaratilgan fitosanitariya tadbirlarini amalga oshirishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;</p> <p>o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarning zaxiralarini shakllantiradi;</p> <p>zararli organizmlarga, shu jumladan zarar keltiradigan chigirtkaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlarni tasdiqlaydi;</p> <p>o‘simliklarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha ishchi guruhlarni shakllantiradi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi.</p> <p>Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.</p>

3-bob. O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat nazorati
--

11-modda. O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirish

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan davlat nazoratini maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagilar ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi:

o‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirishga doir ruxsatnomani, mineral o‘g‘itlarning va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani olish tartibiga rioya etilishi;

mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirish chog‘ida ko‘riktan o‘tkazish, ularni saqlash, realizatsiya qilish, qo‘llash, tashish, muomaladan chiqarish, zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, ko‘mib tashlash va yo‘q qilish tartibiga rioya etilishi;

biologik himoya vositalarini olib kirish va olib chiqish tartibiga rioya etilishi;

biologik himoya vositalarini ishlab chiqarishning texnologik jarayonlariga va ularda yetishtiriladigan biologik mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlariga doir talablarga rioya etilishi.

Kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish, saqlash, realizatsiya qilish, qo‘llash, tashish, muomaladan chiqarish, zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, ko‘mib tashlash hamda yo‘q qilish chog‘ida sanitariya va ekologiya talablariga rioya etilishini tekshirish davlat sanitariya nazorati hamda ekologik nazorat doirasida amalga oshiriladi.

O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

12-modda. O‘simliklar karantini davlat inspektorlarining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi huquqlari
--

O‘simliklar karantini davlat inspektorlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning hududiga qonunchilikda belgilangan tartibda kirish;

o‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari aniqlangan taqdirda, kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari mavjud bo‘lgan yuqlarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishini taqiqlash;

bojxona organlaridan, temir yo‘l stansiyalarining, avtovokzallarining (avtostansiyalarining), aeroportlarning va boshqadagi mahsulotlarning ma‘muriyatlaridan olib kirilayotgan hamda olib chiqilayotgan kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni so‘rab olish;

biologik himoya vositalarini olib kirish va olib chiqish tartibiga muvofiq hujjatlarni talab qilish;

o‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf etish va ularning oldini olish bo‘yicha ijro etilishi shart bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

kimyolashtirish vositalarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olganlik to‘g‘risidagi guvohnomaga muvofiqligini aniqlash maqsadida ulardan laboratoriya tekshiruvlari hamda tegishli ekspertiza uchun namunalar olish;

zararli organizmlar rivojlanishi va tarqalishining oldini olish maqsadida fitosanitariya monitoringi hamda prognozini, shuningdek o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha tadbirlarning bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

O‘simliklar karantini davlat inspektorlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13-modda. O‘simliklar karantini davlat inspektorlarining o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi majburiyatlari
<p>O‘simliklar karantini davlat inspektorlari:</p> <p>mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirish chog‘ida mineral o‘g‘itlarni va o‘simliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirishga doir ruxsatnoma mavjudligini tekshirishi hamda ularning mazkur ruxsatnomaga muvofiqligini baholashni amalga oshirishi;</p>

biologik himoya vositalarini olib kirish va olib chiqish chog‘ida ularning fitosanitariya sertifikatiga, karantin ruxsatnomasiga muvofiqligini baholashni amalga oshirishi;

kimyolashtirish vositalarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining laboratoriya tekshiruvlari o‘tkazilishini tashkil etishi;

zarur bo‘lganda biologik himoya vositalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni so‘rab olish va ularga baho berishi;

biologik himoya vositalarining samaradorligi monitoringini o‘tkazishi;

o‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilishga doir tadbirlarni belgilashi shart.

O‘simliklar karantini davlat inspektorlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

4-bob. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari
<p>14-modda. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi huquqlari</p>

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

maxsus vakolatli davlat organidan zararli organizmlarni aniqlash maqsadida fitosanitariya monitoringi va nazorat tekshiruvlari o‘tkazilishini talab qilish;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish to‘g‘risida arizalar berish hamda kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish uchun sinovlarni o‘tkazuvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;

zararli organizmlarga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishni rad etish haqidagi, kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olganlik to‘g‘risida guvohnoma berish haqidagi yoxud uni berishni rad etish to‘g‘risidagi qarorlar ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish;

tegishli davlat organlaridan o‘simliklarni himoya qilishga taalluqli ma‘lumotlarni va axborotni olish;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va uning hududidan olib chiqish.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15-modda. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi majburiyatlari

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar:

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llash qoidalariga rioya etishi;

sinovlarni o‘tkazuvchi tashkilotlar tomonidan ro‘yxatga olish uchun sinovlarni o‘tkazish maqsadida kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari namunalarining hamda texnik hujjatlarining, taqqoslash uchun etalonlarning va ta‘sir etuvchi moddalar tahliiliy standartlarining zarur bo‘lgan miqdorini taqdim etishi;

o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi texnik reglamentlarda ko‘rsatilgan xavfsizlik talablariga rioya etishi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini zararsizlantirishi hamda ularni maxsus omborxonalarda yoki maxsus xonalarda tegishli ravishda saqlashi;

o‘simliklar karantini davlat inspektorlarining ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni bajarishi;

sertifikatlashtirilgan biologik himoya vositalarini qo‘llashi;

fitosanitariya tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi;

kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini olib kirish, saqlash, tashish, realizatsiya qilish hamda qo‘llashning qonunchilikda belgilangan tartibiga va qoidalariga rioya etishi, shuningdek o‘simliklarning, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining va boshqa o‘simlik mahsulotining hamda atrof-muhitning ushbu vositalar bilan ifloslantirilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

5-bob. Kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish hamda ular bilan bog‘liq ishlarni xavfsiz amalga oshirishga doir talblar
<p>16-modda. Kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish</p>

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan yoki boshqa mamlakatlardan olib kelinadigan kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari ro‘yxatga olinishi lozim.

Kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ro‘yxatga olish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkazilgan sinovlar natijalari asosida amalga oshiriladi.

Kimyolashtirish vositalari va o‘simliklarni himoya qilish vositalari besh yil muddatga ro‘yxatga olinadi.

Ro‘yxatga olinmagan kimyolashtirish vositalarini va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish, olib kirish, realizatsiya qilish hamda qo‘llash taqiqlanadi, bundan ushbu Qonunning 22-moddasida nazarda tutilgan o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llash hollari mustasno.

◀ (Davomi 5-betda).▶▶

Oʻzbekiston Respublikasining
QONUNI

Oʻsimliklarni himoya qilish toʻgʻrisida

◀ (Davomi. Boshlanishi 1, 4-betlarda).

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda yigʻim undiriladi.

17-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazish

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini qoʻllash samaradorligini aniqlashni;

kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining inson sogʻligʻiga salbiy taʼsiri xavfini baholashni hamda sanitariya normalari va qoidalarni, gigiyena normativlarini ishlab chiqishni;

kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining qoʻllanilishiga ekologik jihatdan baho berishni.

Maxsus vakolatli davlat organi ariza beruvchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi bilan birgalikda oʻrganishni amalga oshiradi.

Oʻrganish natijalariga koʻra, kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazish rejasini tasdiqlanadi yoki sinovlarni oʻtkazish rad etiladi.

Maxsus vakolatli davlat organi Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazuvchi tashkilotlar roʻyxatini tasdiqlaydi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlar kimyolashtirish vositalarining hamda oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining biologik samaradorligini, toksikologik-gigiyenik xossalari va ekologik xossalarni aniqlash uchun, ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan tartibda tasdiqlangan rejalariga muvofiq oʻtkaziladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olishga doir ariza bergan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar sinovlarni oʻtkazish uchun kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining zarur miqdordagi namunalarni, texnik hujjatlarni, taqqoslash uchun etalonlarni, taʼsir etuvchi moddalarning tahliliy standartlarini taqdim etishi shart.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazish muddati ikki yildan oshmasligi kerak.

18-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarning natijalari toʻgʻrisidagi xulosa

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarni oʻtkazgan tashkilotlar tegishli xulosani yoki ilmiy hisobotni tayyorlaydi hamda uni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Maxsus vakolatli davlat organi xulosalarga va ilmiy hisobotlarga asosan yakuniy xulosa tayyorlaydi hamda ularning natijalariga koʻra kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish haqida yoxud roʻyxatga olishni rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

Maxsus vakolatli davlat organi kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarning natijalarini tahlil qiladi hamda baholashni amalga oshiradi.

Sinovlarni oʻtkazgan tashkilotlar yoki ulardan biri sinovlar yakunlari boʻyicha salbiy xulosa chiqargan taqdirda, kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish rad etiladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarning natijalari toʻgʻrisidagi xulosani tayyorlash muddati olti oydan oshmasligi kerak.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun ariza bergan shaxslar, shuningdek ushbu vositalarni ishlab chiqaruvchilar kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarning natijalari toʻgʻrisidagi xulosani tayyorlashda ishtirok etishga haqli emas.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish uchun sinovlarning natijalari toʻgʻrisidagi xulosa ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

19-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisidagi guvohnomani berish

Maxsus vakolatli davlat organining kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olish haqidagi qarori kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisida guvohnoma berish uchun asos boʻladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisidagi guvohnomaning shakli Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

20-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini qayta roʻyxatga olish

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini qayta roʻyxatga olish qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tegishli arizaga asosan amalga oshiriladi.

21-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisidagi

guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

qoʻllanilayotgan kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining tarkibida boshqa aralashmalar mavjud boʻlganda yoki ularning tarkibi roʻyxatga olingan tarkibdan farq qilganda;

roʻyxatga olingan kimyolashtirish vositalari va oʻsimliklarni himoya qilish vositalari qoʻllanilganda inson sogʻligʻiga, atrof-muhitga yoki biologik himoya vositalariga zarar yetkazilishi ehtimoli toʻgʻrisida ilmiy jihatdan tasdiqlangan yangi maʼlumotlar mavjud boʻlganda;

roʻyxatga olingan kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining nomaqbul xossalari, biologik samaradorligi past ekanligi aniqlanganda.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olganlik toʻgʻrisidagi guvohnomaning amal qilishi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tegishincha Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasining, Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining xulosasiga asosan tugatiladi.

22-modda. Roʻyxatga olinmagan oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tajriba tariqasida qoʻllash

Oʻsimliklarni himoya qilish boʻyicha shoshilinch choralar koʻrilishini talab qiluvchi holatlar mavjud boʻlgan taqdirda, roʻyxatdan oʻtkazilmagan oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini bir yilgacha boʻlgan muddatda tajriba tariqasida qoʻllashga yoʻl qoʻyiladi.

Oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tajriba tariqasida qoʻllashga doir ruxsatnoma maxsus vakolatli davlat organi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi bilan kelishilgan holda, oldindan belgilangan maydon yoki hudud uchun bir vegetatsiya davriga boʻlgan muddatda beriladi.

Oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tajriba tariqasida qoʻllashga doir ruxsatnomani berish chogʻida maxsus vakolatli davlat organi tajriba rahbarini, shuningdek uni oʻtkazish qoidalari va shartlarini belgilaydi.

Oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tajriba tariqasida qoʻllash muddati tugaganidan keyin tajriba rahbari maxsus vakolatli davlat organiga tajriba natijalari toʻgʻrisidagi hisobotni, shuningdek oʻsimliklarni himoya qilish vositalari qoldiqlari, asboblari va moslamalar turgan joy haqidagi axborotni taqdim etadi.

23-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini standartlashtirish, sertifikatlashtirish va tamgʻalash

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini standartlashtirish hamda sertifikatlashtirish Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan amalga oshiriladi, bundan biologik himoya vositalari mustasno.

Biologik himoya vositalarining sifatini sertifikatlashtirish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tamgʻalash ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini standartlashtirish, sertifikatlashtirish hamda tamgʻalash tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

24-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini realizatsiya qilish, olib kirish va olib chiqish

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini Oʻzbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishga, olib kirishga va olib chiqishga muvofiqlik sertifikati olinganidan hamda ular Oʻzbekiston Respublikasida roʻyxatdan oʻtkazilganidan keyin yoʻl qoʻyiladi.

Mineral oʻgʻitlarni va oʻsimliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarni olib kirish tegishli ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

Mineral oʻgʻitlarning va oʻsimliklarni himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi boʻyicha faoliyat litsenziyaga asosan amalga oshiriladi.

25-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini qoʻllash

Kimyolashtirish vositalari va oʻsimliklarni himoya qilish vositalari fitosanitariya, sanitariya holati hamda ekologik holat hisobga olingan holda qoʻllaniladi.

Mineral oʻgʻitlar oʻsimliklarning etiyoyi, yerlarning sifati, shuningdek tuproq tahliliga va boshqa tahlillarga asosan aniqlanadigan tuproq unumdorligining holatini baholash natijalar hisobga olingan holda qoʻllaniladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini qoʻllash tegishli texnik reglamentlarda koʻrsatilgan xavfsizlik talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

26-modda. Kimyolashtirish vositalari va oʻsimliklarni himoya qilish vositalari bilan bogʻliq ishlarni xavfsiz amalga oshirish toʻgʻrisidagi axborot

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini roʻyxatga olishga doir ariza bergan yuridik hamda jismoniy shaxslar isteʼmolchilarni kimyolashtirish vositalari va oʻsimliklarni himoya qilish vositalari bilan bogʻliq ishlarni xavfsiz amalga oshirish toʻgʻrisidagi axborot bilan taʼminlash maqsadida ularga kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tashish, qoʻllash, saqlash va qadoqlash haqidagi axborotni hamda ogohlantiruvchi tamgʻasi mavjud boʻlgan idish yorligʻini taqdim etishi shart.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish

vositalarini realizatsiya qilish chogʻida sotuvchi (yetkazib beruvchi) idishning har bir birligiga kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tashish, qoʻllash, saqlash hamda qadoqlashga doir tavsiyanomalarni, shuningdek idish yorligʻini joylashtirishi kerak.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tashish, qoʻllash, saqlash hamda qadoqlashga doir tavsiyanomalarning shakli va ularni tasdiqlashga hamda idishning yorligʻiga oid talablar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

27-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarishga doir talablar

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchilar quyidagilarni taʼminlashi shart:

kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining normativ hujjatlarga muvofiq isteʼmolchi hamda chakana savdo uchun qulay va xavfsiz boʻlgan oʻrovlarda ishlab chiqarilishini;

kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining oʻsimlik xom-ashyosidagi, dorivor xom-ashyodagi va oziq-ovqat mahsulotlaridagi qoldiq miqdorining belgilangan standartlarga muvofiqini;

agar realizatsiya qilish, foydalanish, tashish hamda saqlash chogʻida xavfsizlik talablariga rioya etilmaganligi natijasida kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining samaradorligi pasaygan boʻlsa, ularning realizatsiya qilinishi tugatilishini va belgilangan tartibda muomaladan chiqarilishini.

Kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining idishlari va oʻrovlari uchun foydalaniladigan materiallar insonni, atrof-muhitni kimyolashtirish vositalarining va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarining xavfli xossalariidan himoya qilish uchun maxsus moslashtirilgan boʻlishi, ushbu vositalar tarkibidagi moddalarning yemiruvchi yoki boshqacha taʼsirga chidamli boʻlishi, shuningdek bir-biriga oʻzaro taʼsir qilmasligi va ular bilan xavfli oqibatlarni keltirib chiqaruvchi reaksiyaga kirishmasligi kerak.

Roʻyxatga olinmagan kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

28-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini saqlash

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini faqat maxsus omborxonalarda yoki maxsus xonalarda saqlashga yoʻl qoʻyiladi. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini maxsus idishsiz saqlash taqiqlanadi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini saqlash chogʻida sanitariya normalari va qoidalarga hamda ekologik normativlarga rioya etilishi kerak.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini saqlashga doir talablar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan umumiy texnik reglamentlarda belgilanadi.

29-modda. Yaroqsiz holga kelgan va (yoki) qoʻllanilishi taqiqlangan kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini zararsizlantirishga, utilitatsiya qilishga, koʻmib tashlashga va yoʻq qilishga doir talablar

Yaroqsiz holga kelgan va (yoki) qoʻllanilishi taqiqlangan kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, koʻmib tashlash hamda yoʻq qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yaroqsiz holga kelgan va (yoki) qoʻllanilishi taqiqlangan kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini zararsizlantirish, utilitatsiya qilish, koʻmib tashlash hamda yoʻq qilish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan maxsus vakolatli davlat organi, Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi vakillarining nazorati ostida amalga oshiriladi.

Yuridik hamda jismoniy shaxslar kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini hamda ularning idishlarini saqlash, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va koʻmib tashlash chogʻida sanitariya-gigiyena normalarga, shuningdek hayvonot va oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish talablariga rioya etishi shart.

30-modda. Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tashishga doir talablar

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini insonning sogʻligʻiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazish ehtimolini istisno etgan holda, maxsus jihozlangan transport vositalarida tashishga yoʻl qoʻyiladi.

Kimyolashtirish vositalarini va oʻsimliklarni himoya qilish vositalarini tashish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

31-modda. Ekologik xavf ehtimoli boʻlgan vaziyatlar

Oʻsimliklarni himoya qilish uchun qoʻllaniladigan oʻta zaharli, kuchli taʼsir etuvchi zaharli, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va ulardan foydalanish chogʻida ekologik xavf ehtimoli boʻlgan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda tegishli ishlab chiqarish obyektlari atrofida, transport magistrallari boʻylab qonunchilikka muvofiq alohida huquqiy rejim oʻrnatiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar**32-modda. Oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik**

Oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli davlat organi oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik doirasida:

xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari va oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan oʻzaro axborot almashishni amalga oshiradi;

Oʻzbekiston Respublikasi hududiga olib kirish uchun moʻljallangan oʻsimlik mahsulotini yetishtirish va qadoqlash joylarida pestitsidlarni qoʻllashga doir majburiy talablarga rioya etilishini nazorat qiladi.

33-modda. Oʻsimliklarni himoya qilishga doir faoliyatni moliyalashtirish

Zararli organizmlarga qarshi kurashish hamda fitosanitariya xavfsizligini taʼminlash uchun har yili Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan mablagʻlar ajratiladi.

Oʻsimliklarni himoya qilishga doir faoliyat Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablagʻlari, byudjetdan tashqari jamgʻarmalar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Maxsus vakolatli davlat organining oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi davlat xizmatlari, shuningdek zarur hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bogʻliq xarajatlarning oʻrni tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, xoʻjalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning mablagʻlari hisobidan qoplanadi.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar oʻziga tegishli hududlarda oʻsimliklarning himoya qilinishini taʼminlashga doir xarajatlarni oʻz mablagʻlari hisobidan amalga oshiradi.

34-modda. Nizolarni hal etish

Oʻsimliklarni himoya qilish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

35-modda. Oʻsimliklarni himoya qilish toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Oʻsimliklarni himoya qilish toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

36-modda. Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb topish

Quyidagilar oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilsin:

- Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustda qabul qilingan **“Qishloq xoʻjalik oʻsimliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona oʻtlardan himoya qilish toʻgʻrisida”**gi 116–II-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 7–8, 208-modda);
- Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 31-avgustda qabul qilingan **“Qishloq xoʻjalik oʻsimliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona oʻtlardan himoya qilish toʻgʻrisida”**gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida”gi 117–II-sonli Qarori (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 7–8, 209-modda);
- Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 11-dekabrda qabul qilingan **“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”**gi OʻRQ–381-sonli Qonunining (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 12, 343-modda) **17-moddasi**;
- Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentyabrda qabul qilingan **“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb topish toʻgʻrisida”**gi OʻRQ–446-sonli Qonunining (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 9, 510-modda) **45-moddasi**;
- Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan **“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartishlar kiritish toʻgʻrisida”**gi OʻRQ–683-sonli Qonunining (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **118-moddasi**;
- Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 26-aprelda qabul qilingan **“Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartishlar kiritish toʻgʻrisida”**gi OʻRQ–685-sonli Qonunining (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 290-modda) **3-moddasi**.

37-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini taʼminlash

Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi oʻrtasida tushuntirilishini taʼminlasin.

38-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid boʻlgan oʻz normativ-huquqiy hujjatlarini qayta koʻrib chiqishlari va bekor qilishlarini taʼminlasin.

39-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran uch oy oʻtgach kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

INVESTITSIYA LOYIHALARINI JADAL SUR'ATDA AMALGA OSHIRISHGA KELISHIB OLINDI



Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Koreya — O'zbekiston biznes assotsiatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari Kim Chang Keonni qabul qildi.

Muloqot

Qayd etish joizki, ikki davlat o'rtasida so'nggi yillarda iqtisodiy almashinuv va sarmoyaviy faoliyat rivojlanib, hamkorlik yangi pog'onaga ko'tarilmoqda. Koreya Respublikasidan O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 mlrd. dollardan oshgani va mamlakatimizda qariyb mingta qo'shma korxonalar samarali faoliyat yuritayotganligi ham shundan dalolat beradi.

yo'nalishida qo'shma korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash kabi yana qator masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Shuningdek, tomonlar sarmoyaviy hamkorlikni mustahkamlash, Koreya Respublikasi yetakchi kompaniyalarini O'zbekistonga jalb etish yuzasidan fikr almashdi.

Kim Chang Keonning ta'kidlashicha, Janubiy Koreya ishbilarmonlari O'zbekistonga investitsiya kiritishdan manfaatdor. Bunda kichik va o'rtabiznesni rivojlantirish, O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining Janubiy Koreyadan tashqari Yaponiya va Xitoyga eksportini yo'lga qo'yishda mamlakat katta imkoniyatlarga ega ekanligi aytib o'tildi.

Samimiy va amaliy ruhda kechgan muloqotda tomonlar o'zaro manfaatli sohalarida hamkorlikni izchil davom ettirish va investitsiya loyihalarini jadal sur'atda amalga oshirishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

DAVLAT DASTURINING JORIY YIL TO'QQIZ OYIDAGI IJROSI KO'RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Vazirlar Mahkamasining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2023-yil to'qqiz oyidagi ijrosi yuzasidan hisoboti muhokama qilindi.



Ta'kidlanganidek, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar doirasida aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, fuqarolarning hayot darajasini oshirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Majlisda qayd etilganidek, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari doirasida ko'rilgan choralar tufayli yalpi ichki mahsulot o'sishi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 5,8 foizni tashkil etdi.

Davlat dasturining jami 443 ta yaxlit va kichik bandida nazarda tutilgan topshiriqlardan 250 tasining joriy muddati 2023-yilning 9 oyi etib belgilangan. Shundan 187 ta band (kichik band) to'liq bajarilgan, 24 tasining ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan tegishli hujjat loyihalari ko'rib chiqilmoqda, 14 tasining joriy muddati belgilangan tartibda uzaytirilgan.

Shuningdek, davlat dasturida qayd etilgan bir qator normativ-huquqiy hujjat loyihalarining ishlab chiqilishida Hukumat va parlament o'rtasida yaqin hamkorlikda faoliyat olib borildi. Qonunchilik palatasining qo'mitalari va Hukumat tomonidan nazorat-tahlil tadbirlari ko'tarilgan masalalarga birgalikda yechim topish amaliyotidan unumli foydalanildi.

O'tgan davrda davlat dasturida belgilangan vazifalar bo'yicha 110 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili, statistik ko'rsatkichlar iqtisodiy-

ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligini ta'minlash, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilganligini ko'rsatmoqda.

Adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish borasida ham muayyan ishlar bajarilgan. Jumladan, o'tgan davrda respublika bo'yicha og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan 78 mingga yaqin ishsiz xotin-qizlarning manzilli ro'yxati shakllantirilib, ularni ichki mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish choralari ko'rilgan.

Shu bilan birga, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida inqilabiy ta'lim tizimi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich joriy qilish choralari ko'rilgan. Jumladan, respublika bo'yicha barcha tuman va shaharlardagi jami 417 ta maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilib, 734 nafar imkoniyati cheklangan bola qamrab olingan.

Axborotda keltirib o'tilganidek, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatlari yaxshilash, sohaga ajratiladigan

mablag'larni ko'paytirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sohada ko'rilgan chora-tadbirlar doirasida 5,9 mln. nafar 18 — 40 yoshli aholi profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tkazildi, kasalliklari mavjud aholining 1,4 mln. nafari ambulator yo'sinda hamda 41 ming nafari stasionar sharoitda sog'lomlashtirildi, 3,8 mln. nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi manzilli skriningdan o'tkazildi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish, dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar ko'paytirish hamda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi yillik ulushini kamida 5 foizga yetkazish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 46 ming gektar yer maydoni foydalanishga kiritildi.

Majlisda deputatlar tomonidan davlat dasturi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar alohida qayd etilib, ayrim bandlarning joriy muddatlari yil davomida, deb belgilangan bo'lsa-da, ularning bajarilishi holati haqidagi ma'lumotlar hisobotda yetarlicha aks ettirilmaganligi e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Muhokama jarayonida Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan davlat dasturida muhim tarmoq va sohalarning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida qabul qilinishi belgilangan qonun loyihalarini sifatlari ishlab chiqish g'amlari o'z vaqtida parlament muhokamasiga kiritish borasidagi ishlar alohida

mas'uliyat bilan e'tibor qarantish lozimligi ta'kidlab o'tildi. Taqdim etilgan hisobot, unda keltirilgan har bir raqam va tahlillar deputatlar tomonidan atroflicha ko'rib chiqilib, har bir siyosiy partiya fraksiyasi o'z nuqtayi nazarini, fikr-mulohazalarini bildirdi.

O'zLiDeP fraksiyasi partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat dasturining milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarini e'tirof qilib, Hukumat e'tiborini milliy iqtisodiyotning drayveri bo'lgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid siyosatni davom ettirish, hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining sifatlari va samarali ijrosini ta'minlashga qarantish kerakligiga urg'u berdi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zolari davlat dasturining to'qqiz oylik ijrosi yuzasidan maktabgacha va maktab ta'limi tomonidan amalga oshirilgan ishlariga to'xtalib, o'qituvchilar faoliyatini inson omilisi baholash tizimini joriy etish yuzasidan takliflar berdi. Shuningdek, maktabgacha ta'limga oliy ma'lumotli tarbiyachilarni ko'proq jalb qilish, ularning oylik maoshlarini boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maoshiga tenglashtirish hamda o'qituvchilarning toifa sertifikatini olishda muammolar borligi ta'kidlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ishlarini jadallashtirish zarurligi bildirildi.

"Adolat" SDP fraksiyasi deputatlari korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish choralarini ko'rib chiqilishini e'tirof etib, amaliyotda bu borada hal-hanuz ayrim muammolar, xususan, inson omili saqlanib qolayotganligini ta'kidlab, shu bois ayrim sohalarida

korrupsiyani keltirib chiqaruvchi holatlarning oldini olish maqsadida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi.

O'zXDP fraksiyasi vakillari davlat dasturining ijtimoiy yo'naltirilganligi, partiyaning doimiy elektorati hisoblangan ehtiyojmand qatlam vakillarining huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha manzilli choralar ko'rib chiqilganini ta'kidlab, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yordamning mazzalligini kuchaytirish, shuningdek, bunday yordamning ijtimoiy samaradorligini doimiy monitoring qilib borishni zarur, deb hisoblaydi.

Ekologik partiya fraksiyasi a'zolari ta'kidlaganidek, hisobotda barcha sohalar qatori atrof-muhiti muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etish masalalariga ham e'tibor qarantilgan. Fraksiya davlat dasturida belgilangan vazifalar, sohada amalga oshirilgan ishlarini e'tirof etgan holda, muddati uzaytirilgan hamda to'rtinchi chorakda amalga oshirilishi belgilangan bandlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash choralarini ko'rish lozim, deb hisoblaydi.

Savol-javoblarga boy bo'lgan majlisda deputatlar tomonidan davlat dasturining ijrosi ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish, parlament nazoratining barcha shaklidan unumli foydalanish zarurligi qayd etildi.

Majlisda Vazirlar Mahkamasining davlat dasturi ijrosi yuzasidan taqdim qilingan hisoboti ma'qullanib, Hukumatning tegishli faoliyatni samaradorligini oshirishga qarantilgan takliflar aks etgan tegishli qaror qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

XALQARO MIQYOSDAGI ZALVARLI QADAMLAR

Keyingi 7 yilda O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari — tashqi va ichki siyosatdagi islohotlari tufayli xalqaro maydonda o'zining mustahkam o'rni ega bo'ldi. Xususan, dunyoga ochiqlik siyosati natijasida jahonning turli mintaqalaridagi davlatlar bilan har tomonlama aloqalarimiz nihoyatda yuksaldi. Ayniqsa, qo'shnilarimiz bilan uzilib qolgan aloqalarimiz o'z o'ziga tushganligini mamlakatimizning xalqaro maydondagi ulkan yutuqlaridan biri bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Mushohada

Takror bo'lsa-da, aytamizki, bu muvaffaqiyatlar bevosita davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi, ta'bir joiz bo'lsa, kuchli shaxsiyati bilan bog'liq. Buni bugungi kunga kelib, nafaqat biz, balki xalqaro jamoatchilik ham e'tirof etmoqda.

u Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlash, turkiy mamlakatlar manfaatlari va qarashlari xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — "Turkiy dunyoning oliy ordeni"ni topshirish marosimida samimiy fikrlar bildirdi. Ya'ni "Sizning tashabbuslaringizning turkiy davlatlar birliги va hamjihatligini mustahkamlashda o'rni beqiyos", deya alohida ta'kidlab.

Nazarimizda, bu avvalo, O'zbekiston yetakchisi tomonidan xalqaro ahamiyatga ega yuqori darajadagi sammit va forumlarda, jumladan, BMT doirasidagi hamda mintaqaviy xususiyatga molik turli tadbirlarda chuqur o'ylangan va tahlil qilingan, uzozni ko'zlagan pragmatik xarakterga ega takliflar ilgari surib kelinyotgan bilan bog'liq.

Darhaqiqat, O'zbekiston 2019-yilda tashkilotga a'zo bo'lib kirganidan buyon davlatimiz rahbari tomonidan turkiy mamlakatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi ko'rishlik va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qarantilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Mamlakatimizning mazkur tashkilotga raisligi davrida esa 100 dan ziyod turli tadbirlar o'tkazildi, amaliy hamkorlikning samarali mexanizmlari yaratildi, nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari mustahkamlandi.

E'tiborlisi, ushbu tashabbus va takliflar tarixiy ahamiyatga egaligi, dolzarbligi, insoniyatni qiyinab kelayotgan muammolarni hal qilishga hamda butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham ular jahon hamjamiyati tomonidan izchillik bilan qo'llab-quvvatlanmoqda va xalqaro hujjatlarda ifodasini topmoqda.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Prezidentimizga MDH faxriy nishonini topshirish jarayonida uzoq yillar davomida saqlanib kelgan Qirg'iziston — O'zbekiston chegarasi masalalaridagi muammolar aynan Shavkat Mirziyoyevning kuchli siyosiy irodasi bilan yechim topganligini qayd etdi.

O'zbekiston yetakchisining Xitoyga rasmiy tashrifi davomida yirik kompaniyalar rahbarlari va taniqli tadbirkorlar bilan o'tkazgan uchrashuvi ta'sirida ular tomonidan OAVga bildirilgan fikrlar ham diqqatga sazovor. Jumladan, ular dan bir shunday deydi: "O'zbek xalqi faqat o'zining iqtisodiy salohiyati bilan qudratli emas, balki shunday yuqori salohiyatga ega, kuchli siyosiy irodali, pragmatik, buyuk siyosatchi Prezidenti bilan qudratli va g'ururlansa bo'ladi".

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti poytaxtimizda o'tkazilishi ham O'zbekiston va uning yetakchisining xalqaro maydonda nechog'li yuksak e'tirofiga ega ekanidan dalolat berishini yaqqol ifodalaydi.

Fransiya Prezidenti o'z so'zida O'zbekiston yetakchisi tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati hamda mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni alohida tilga oldi. Ayni chog'da u O'zbekistonda olib borilayotgan islohot va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosati naqadar to'g'ri yo'l'da ekanligini ham anglatadi.

Bunday samimiy va haqoniy e'tirof Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan ham aytilgandi. Jumladan,

Botir MATMURATOV, Oliy Majlis Senatining Orlobo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

MUHOKAMA DEPUTATLAR QANDAY MASALALARNI KO'TARDI?

Maqsad — shunchaki tasdiqlab yuborish emas

Qonun ustuvorligi, mamlakat taraqqiyoti, fuqarolarning erkin va farovon hayot kechirishi, yosh avlod kelajagining kafolati bo'lgan dolzarb masalalar shu kunlarda parlamentda ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalarining asosini, mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda.

Kuni kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida shu jihatga e'tibor qarantib, haqiqatan ham, ajratilayotgan subsidiyalarning ma'lum bir qismi ayrim hududlarda foydalanilmagan qolib ketayotganini qayd etdi. Shuningdek, subsidiya — ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmagan, lekin doimiy daromadga ega oilalarga tegishli ekanini, yetimlar, nogironliligi bo'lgan shaxslar, boquvchisi yo'q fuqarolar uchun emasligini ta'kidlab, ko'p hollarda ayrim hokimliklar tomonidan vaziyatdan chiqish uchun ehtiyojmand aholi vakillariga subsidiyalarni taqdim etib yuborilayotganini, bu esa shundog'am faqat oylik maoshiga kun ko'rayotgan fuqarolarimizga uy-joy uchun olingan kreditning keyingi qiymatlarini to'lashda qiyinchiliklar tug'dirayotganini va to'g'ri yo'l emasligini aytib o'tdi. Shu bilan birga, yetimlar, nogironliligi bo'lgan shaxslar, boquvchisi yo'q fuqarolarimiz bepul uy-joy bilan ta'minlash tartibi ustida ayni paytda mas'ul vazirlar bilan birgalikda ish olib borilayotganini ta'kidlab.

Deputatlar yuqoridagi muammasiz qilib keltirgan. Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov masalaning shu jihatiga e'tibor qarantib, haqiqatan ham, ajratilayotgan subsidiyalarning ma'lum bir qismi ayrim hududlarda foydalanilmagan qolib ketayotganini qayd etdi. Shuningdek, subsidiya — ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmagan, lekin doimiy daromadga ega oilalarga tegishli ekanini, yetimlar, nogironliligi bo'lgan shaxslar, boquvchisi yo'q fuqarolar uchun emasligini ta'kidlab, ko'p hollarda ayrim hokimliklar tomonidan vaziyatdan chiqish uchun ehtiyojmand aholi vakillariga subsidiyalarni taqdim etib yuborilayotganini, bu esa shundog'am faqat oylik maoshiga kun ko'rayotgan fuqarolarimizga uy-joy uchun olingan kreditning keyingi qiymatlarini to'lashda qiyinchiliklar tug'dirayotganini va to'g'ri yo'l emasligini aytib o'tdi. Shu bilan birga, yetimlar, nogironliligi bo'lgan shaxslar, boquvchisi yo'q fuqarolarimiz bepul uy-joy bilan ta'minlash tartibi ustida ayni paytda mas'ul vazirlar bilan birgalikda ish olib borilayotganini ta'kidlab.

Ta'limga ajratilayotgan mablag' kutilgan natijani bermayapti

Yana bir deputat, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Ahmadjon G'aniyev 2024-yilgi budget loyihasida ta'lim-tarbiya sohasiga ajratilayotgan mablag'larga e'tibor qarantib. Deputatning qayd etishicha, mas'ul vazirlik xarajatlar asosiy qismining qariyb 80 foizi yoki 40 trillion so'mga yaqinini o'qituvchilarning oylik maoshlariga yo'naltiryapti. Bu kam mablag' emas. Shuncha mablag' sarflanayotganiga qaramay, o'tgan yilda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining natijalari yoshlarning bilimlari qoniqarli emasligini ko'rsatdi. Demak, ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchilar va tarbiyachilarning ishiga real baho beradigan, yaxshi ishlaydigan o'qituvchiga yaxshi maosh to'laydigan tizim yaratish, ta'lim-tarbiyada sarf qilinayotgan mablag'larning samarasini ko'rish lozim va shart. Sertifikat va o'qituvchilarga berilayotgan toifa, afuski, realnikni aks ettirmayapti. O'qituvchiga darsini vizual-video kuzatuv orqali baho berish, inson omilisi baholash haqida o'ylashimiz kerak.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ul deputat ko'targan masala og'riqli ekanini, o'qituvchilarning bilimini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida oxirgi yillarda ularning oylik maoshi ikki barobar ko'tarilganini, shuningdek, eng yaxshi o'qituvchilar oyligini oshirish mexanizmlari bosqichma-bosqich taqbiq qilinayotganini qayd etdi. Ayni paytda Hukumatga o'qituvchilar toifasi tizimini takomillashtirish bo'yicha qaror loyihasi kiritilgani, bu orqali hozirgi toifa o'z ish tizimi takomillashtirish ta'kidlandi. Unga ko'ra, agar hozir faqat o'qituvchining bilimiga baho berilayotgan bo'lsa, yangi tizimda uning pedagogik mahoratini baholashga o'tiladi. Deputat nima uchun aynan ushbu savolni

ko'targani bejiz emas. Chunki yosh avlod bilimi, intellektual salohiyati, xohlaymizmi, yo'qmi, pedagoglarning mahoratiga, bilimiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, yaxshi o'qituvchi ko'proq maosh berib rag'batlantirilsa, u yanada samarali faoliyat yuritadi. Demak, deputat taklifiga asosan, bu boradagi mexanizm ishlab chiqilishini jadallashtirish maqsadga muvofiq.

Berilgan savol amaliy yechim topadigan bo'ldi

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Donyor G'aniyev o'tgan haftada palataga kiritilgan Davlat budgeti loyihasi muhokamasida Hukumat a'zolari bilan birgalikda ko'plab savollarga yechim topilayotganini e'tirof qilib, bugungi kunda odamlarni qiynayotgan eng katta muammo — mahalliy hokimliklar tomonidan fuqarolar foydasiga kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha sud qarorlari ijrosi to'liq ta'minlanmayotganini qayd etdi. Ayni chog'da mahalliy budget loyihasida bo'yicha aniq mexanizm asosida mablag' ajratilishini belgilash lozimligi yuzasidan o'z taklifi bildirdi.

Iqtisodiyot va moliya vaziri ushbu masalaning dolzarbligini ta'kidlab, tadbirkorlarning yer va mulkini olib qo'yish 2019-yilda avjga chiqqanini, bu holat hozirgi kunda keskin kamayganini qayd etdi. Shu bilan birga, ayni paytda ishlab chiqilgan qaror loyihasiga deputatning taklifi bilan hokimliklar agar kimningdir yerini olib qo'ygani yoki binosini buzganlikdan qarzi bo'ladigan bo'lsa, budgetning oshirib bajarilgan qismini boshqa maqsadlarga sarflash taqiqlanishi belgilab qo'yilishi ma'lum qildi.

O'z-o'zidan anglihladiki, ushbu hujjatning amalga oshirishiga taqbiq etilishi hozirgi vaqtda sud qarori qo'lida bo'lgan, lekin kompensatsiya to'lovlarini o'lmayotgan fuqarolarning sarson-sargardon bo'lishlariga chek qo'yadi. Demak, deputat savoli amaliy yechim topadigan bo'ldi.

Yo'l yig'imi uchun to'lovlarini toifalashtirish qanchalik muhim?

Keyingi yillarda mamlakatimizda yo'l xo'jaligi sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qarantilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo'l qurilishi sohasiga mablag'lar jamoatchilik fikri asosida "Mening yo'l" dasturi orqali ajratiladigan bo'ldi.

Ekologik partiya fraksiyasi a'zosi Muxtor Hojimatovning fikricha, aksariyat yo'llarimiz 10 tonnadan ortiq yukni ko'tarishga mo'ljallanmagan. Ammo bugun 20 va undan ortiq tonnalik yuk mashinalari harakatlanayotgani yo'llar sifatiga zarar yetkazmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda 10 tonnalik mashina ham, 50 — 60 tonnalik mashina ham yo'l yig'imi uchun bir xil to'lov to'layapti. Deputat ushbu yig'im miqdorini mashinalar toifalariga qarab tasniflash bo'yicha taklifini o'rtaga tashladi.

Bunga javoban Hukumat vakillari 10 tonnadan ortiq yuk mashinalariga alohida to'lov joriy etish taklifi Transport vazirligi bilan birgalikda muhokama qilinib, bir to'xtamga

kelinishini bildirdi. Bu borada Transport vazirligi mas'ul ham bu o'rinni taklif ekanini va tegishli mutasaddilar bilan birgalikda ko'rib chiqilishini ma'lum qildi.

Munozaralarda, shuningdek, ushbu masala yuzasidan tegishli vazirliklar bilan birga, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi vakillari ham o'z munosabatini bildirishi kerakligi aytildi. Bu ham, o'z navbatida, deputatlar ko'tarayotgan masalalarga chuqur yondashilayotganini ko'rsatadi.

Energetik ichimliklarga aksiz solig'ini oshirish taklif qilindi

Shu o'rinda qonun loyihasi muhokamasida deputatlar Hukumat vakillari oldiga yana bir qator muhim masalalar qo'yganini qayd etish joiz. Jumladan, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Muhammad Valiyev qonun loyihasida virusli gepatitning "S" va "V" turlarini er ta'shislash va virusga qarshi maxsus davolash ishlarini tashkil etish xarajatlarini kamaytirilganligi, shu bilan birga, yiliga bir marta 40 yoshdan oshgan bemorlarning qandli diabet va diabetoldi holati skriningini o'tkazish xarajatlariga 2024-yilda mablag' ajratilmaganini ta'kidlab, Vaholanki, ushbu yo'naltirishlar bo'yicha davlat rahbari tomonidan muhim qarorlar qabul qilingan.

Fraksiyaving yana bir a'zosi Nodira Jonibekova "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonun ijrosi uchun budgetdan mablag'lar shu kungacha ajratilmaganligi hamda Davlat budgeti to'g'risidagi qonun loyihasida ham ko'zda tutilmayotganligining sabablari bilan qiziqdi.

Shuningdek, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi energetik ichimliklarga aksiz solig'ini oshirishni taklif qildi. Deputat Oltinoy Mamirovanning fikricha, tarkibida shakar moddasi bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish inson salomatligiga xavf solib, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sir emaski, tarkibida ko'p miqdorda shakar yoki boshqa shirin ta'm beruvchi energetik ichimliklar uchun ichki ishlab chiqarish va importiga ham aksiz solig'i miqdori litrga 500 so'm qilib belgilangan. Ushbu miqdorning kamligini hisobga olib, uni qaytadan ko'rib chiqish taklif etildi.

Deputatlar ko'targan savollar, haqiqatan ham, dolzarb. O'z navbatida, qonun tashabbuskorlari ushbu masalalar qonun loyihasini ikkinchi, uchinchi o'qishga tayyorlashda mufassal ko'rib chiqilishini bildirdi.

Qonun ijodkorligi — murakkab jarayon. Ayniqsa, gap butun mamlakat taraqqiyoti va har bir fuqaroga hayotiga bevosita daxldor bo'lgan asosiy moliyaviy hujjat haqida ketar ekan, uning muhokamasiga yanada jiddiy yondashilayotgani deputat mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishiga, xarajatlarning to'g'ri yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda qonun loyihasi mas'ul qo'mita — Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasida ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.

Ziyoda ASHUROVA ("Xalq so'zi").

Advertisement for "Xalq so'zi" newspaper, including contact information, subscription rates, and a QR code for digital access.